



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

**LABOUR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

2025 yil 1-son

Volume 4, Issue 1, 2025



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI
VA INSON KAPITALI**
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 1-2025

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:**(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:**(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)
Keynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

S.B.G'oyipnazarov	<i>Сунъий интеллектнинг меҳнат бозори ва иш билан бандликка бўлган таъсири</i>	5-16
I.A.Bakiyeva	<i>Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда меҳнат унумдорлигини ошириш масалалари</i>	17-26
S.P.Qurbonov	<i>Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining aholi unumli bandligini oshirishdagi ahamiyati</i>	27-36
O.Q.Xatamov T.T.Xalikov	<i>Raqamli texnologiyalar assosida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarni bandligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish.....</i>	37-47
N.R.Saidov	<i>Ish o'rinlari barqarorligini ta'minlash: muammolar va istiqbollor</i>	48-55
F.O'.Masharipov	<i>Малакали кадрлар тайёрлаш мақсадида касбий таълимда халқаро таълим дастурларини жорий этиш</i>	56-70
S.Sh.Matkarimova	<i>Yoshlarga xorijiy tillarni o'qitish orqali mehnat bozorida malakali kadrlar tayyorlash: muammolar va yechimlar</i>	71-80
T.M.Bobojonov	<i>Yashil iqtisodiyotning ahamiyati va bandlik imkoniyatlari</i>	81-94

INSON KAPITALI

Ye.R.Kim	<i>Подходы к оценке состояния человеческого капитала в стране</i>	95-107
-----------------	---	--------

INSON TARAQQIYOTI

B.B.Mardonov J.S.Pardayev	<i>Таълим хизматларининг мохияти, ижтимоий-иқтисодий аҳамияти</i>	108-116
R.Z.Muxammadiyev	<i>Ўзбекистонда давлат тиббий суғуртаси: ютуқ ва камчиликлар</i>	117-126
Y.X.Turdiyeva	<i>Финансовая поддержка государственно-частного партнерства: новый взгляд на дошкольное образование</i>	127-133

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH

G'.R.Adashov	<i>Роль показателя совокупного дохода в сокращении бедности в Узбекистане</i>	134-141
---------------------	---	---------

MIGRATSIYA

K.M.Habibullayev	<i>Yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni baholash ko'rsatkichlari</i>	142-155
-------------------------	--	---------

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

O'X.Abdukarimov	<i>Ўзбекистон давлат фуқаролик хизмати тизимида инсон ресурсларини ривожлантириш: миллий тажриба ва замонавий тенденциялар</i>	156-165
------------------------	--	---------

S.S.Abdullayev	<i>Раҳбар ходимларнинг бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолашга бўлган илмий ёндашувлар</i>	166-178
-----------------------	--	---------

M.G'.Abdurazzoqov	<i>Strategik boshqaruvning mazmuni va uning ishlab chiqarish korxonalaridagi ahamiyati</i>	179-186
--------------------------	--	---------

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

M.X.Saidova	<i>Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi asosida biznes rivojlanish jarayonlarini statistik va ekonometrik tahlil qilish</i>	187-193
--------------------	---	---------

X.F.To'xtayeva	<i>Analysis of the transformation of employment in the tourist services market of Uzbekistan and the state of its regulation</i>	194-204
-----------------------	--	---------

Sh.S.Qorriyeva	<i>O'zbekistonda yashil moliyalashtirishni rivojlantirishning xorij tajribasi</i>	205-219
-----------------------	---	---------

O.R.Meyliyev K.X.Gofurova	<i>Raqamli transformatsiya bilan yashil moliyalashtirishning uyg'unligi</i>	220-231
--------------------------------------	---	---------

A.N.Kaxorova	<i>Sanoat tarmoqlarining tarkibiy tuzilishini takomillashtirishning nazariy asoslari</i>	232-239
---------------------	--	---------

N.O.Jumaniyazov M.Y.Umarov R.B.Otamurodov	<i>Fundamental issues of modern finance in the context of a green economy</i>	240-247
--	---	---------

M.T.Kurbonbekova Z.A.Xamidova S.B.Xujaxonova	<i>Qoraqolpog'iston Respublikasida milliy turizmni rivojlantirishda hunarmandchilikni o'rni (hunarmandchilikni rivojlantirish misolida)</i>	248-254
---	---	---------

U.U.Raxmatullayev	<i>O'zbekiston mintaqaviy iqtisodiyotida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishdagi muammolar</i>	255-264
--------------------------	--	---------

N.Sh.Dexkanova Y.F.Najmiddinov	<i>Sanoat korxonalarida energiya intensivligi va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili</i>	265-276
---	--	---------



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASSOSIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI BITIRUVCHILARNI BANDLIGINI TA'MINLASH MEKANIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xatamov Ochildi Qurbonovich

Termiz davlat universiteti professori

Xalikov Timur Tulkinovich

Termiz davlat muhandislik va
agrotexnologiyalar universiteti assistenti

e-mail: khalikovtima@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a147

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarni bandligini ta'minlash muamolari tadqiqot ishlari olib borilgan, tadqiqot ishidan hulosa sifatida, bitiruvchilarni bandligini ta'minlash mexanizmlarni raqamli texnologiyalar assosida transformatsiya jarayonidan o'tishi lozimligi hulosa qilingan.

Kalit so'zlari: Raqamli texnologiyalar, oliy ta'lim muassasalari, bandlik, raqamli iqtisodiyot, bitiruvchilar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ТРУДОУСТРОЙСТВА ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Хатамов Очилди Курбанович

Профессор Термезского государственного университета

Халиков Тимур Тулкинович

Ассистент, Термезский государственный университет
инженерии и агротехнологий

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы обеспечения трудоустройства выпускников высших учебных заведений. В заключение исследования делается вывод о том, что механизмы обеспечения трудоустройства выпускников должны претерпеть процесс трансформации на основе цифровых технологий.

Ключевые слова: Цифровые технологии, высшие учебные заведения, занятость, цифровая экономика, выпускники.

IMPROVEMENT OF THE MECHANISMS OF ENSURING THE EMPLOYMENT OF GRADUATES OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS ON THE BASIS OF DIGITAL TECHNOLOGIES

Khatamov Ochildi Kurbanovich

Professor of Termiz State University Professor

Khalikov Timur Tulkinovich

Assistant, Termez State University of
Engineering and Agrotechnology

Abstract. In the article, the problems of ensuring the employment of graduates of higher educational institutions were researched, as a conclusion of the research work, it was concluded that the mechanisms of ensuring the employment of graduates should go through the process of transformation on the basis of digital technologies.

Keywords. Digital technologies, higher education institutions, employment, digital economy, graduates.

Kirish

“Iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirish uchun bizga yuqori malakali muhandis-texnologlar suv bilan havodek zarur. Har bir vazir, tarmoq rahbari, rektor va professor-o‘qituvchi mas’uliyatni chuqur his qilib, qattiq ishlasa, izlansa, bunga albatta erishamiz” Shavkat Mirziyoyev.³

O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 20-iyun kuni “Muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish” masalalari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishda takidlagandek, 2023-2024 o‘quv yilida 36 ta davlat oliy ta’lim da 67 ming nafar bitiruvchi bitirgan, lekin ulardagi dastur va mutahassisliklar ishlab chiqaruvchilar talabiga mos emas. Oqibatda muhandislarning 60 foizi o‘zi o‘qigan yo‘nalishida ishlamasdan kelmoqda[1].

Mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta’minlash, ish bilan bandlik va ishsizlik muammolarining ilmiy-metodologik jihatlari ko‘plab xorijlik olimlar, jumladan, J.M.Keyns, A.Marshall, M.Fisher, G.E.Slezinger, R.D.Erenberg, A.Pigu va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

MDHning qator olimlari, jumladan S.A.Dyatlov, B.M.Genkin, S.A.Kartashov, Yu.G.Odegov, A.I.Rofe, A.E.Kotlyar, P.E.Shlender, K.G.Kyazimov, B.P.Pankov, Ye.B.Yakovleva, I.A.Dokorev, S.V.Dudnikov, O.A.Varfolomeyeva, N.Vedernikova, O.Kolesnikova, D.Cherneyko, G.K.Kyazimov va boshqa xorijlik olimlar mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va uning taklifi, ishsizlik, mehnat bozorida ishchi kuchi raqobatbardoshligi muammolarini tadqiq etganlar.

O‘zbekistonda mehnat bozorini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish, bitiruvchilar ish bilan bandligini ta’minlash masalalari akad. K.X.Abdurahmonov, B.X.Umurzakov, B.A.Islamov, N.K.Zokirova, Z.Ya.Xudayberdiyev, Sh.X.Nazarov,

³ <https://president.uz/uz/lists/view/7333>

Sh.D.Kudbiyev, R.R.Xasanov, N.X.Raximova, N.U.Arabov, B.Sh.Maxkamov, G.K.Abdurahmonova, X.X.Mamadaliyeva, D.A.Nasimov va boshqa olimlar ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyoti jadal o‘sishi davrida, mehnat bozoriga qo‘yilayotgan talablar ortib bormoqda. Buning asosiy sabablari so‘nggi yillarda fan-texnika taraqqiyoti, yuqori texnologiyalar, kompyuterlar va hisoblash tizimlarining global qo‘llanilishi, jadal rivojlanishi, ishlab chiqarishning zamonaviy texnik va texnologik darajasiga javob beradigan ijtimoiy-iqtisodiy kompleks yuqori malakali mehnat resurslari ishtirokisiz barqaror faoliyat ko‘rsata olmaydi.

Tahlil va natijalar

Bir qator iqtisodchilarning fikricha, “mehnat bozori - bu bozorda mavjud kuchlar, ish beruvchilar, ishchilar va davlat o‘rtasida ma‘lum bir davr uchun erishilgan manfaatlar muvozanati va rivojlanish darajasini aks ettiruvchi ijtimoiy munosabatlar tizimi. Mazkur manfaatlar tarkibiy jihatdan ish beruvchilar tomonidan tadbirkorlar uyushmalari va ishchilar tomonidan kasaba uyushmalari munosabatlarida ifodalanadi. Davlat korxonalari xodimlarini ish bilan ta‘minlaydi va mablag‘larni maxsus loyihalarga, shuningdek turli rivojlanish dasturlariga kiritadi, uning asosiy vazifasi hamkorlar va qarama-qarshi bozor munosabatlari manfaatlarini muvozanatlashdan iborat. Natijada mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlari: iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari va ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishini rag‘batlantiruvchi ijtimoiy ta‘minot tizimlari shakllanadi. Bozor iqtisodiyoti - bu turli bozorlar yig‘indisi: mehnat, moliya, tovarlar, qimmatli qog‘ozlar va boshqalar[2].

Ish bilan ta‘minlashning eng yuqori darajasiga erishish uchun davlat organlari oldida turgan muammolar orasida oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish bilan bog‘liq masalalar alohida ajralib turadi.

Oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini bandligini ta‘minlash, bir tomondan, ta‘lim muassasalarning, ikkinchi tomondan, hududi va davlat badlikni tartibga soluvchi davlat organlarning ustuvor vazifasi bo‘lib, bitiruvchilar yahshi ish haqi va yashash hududida ish bilan ta‘minlanishi alohida ahamiyatga ega. Bu maqsadga erishishning bir yo‘li mehnat bozorini malakali bitiruvchilar bilan to‘ldirishdir. Shu bilan birga, turli sohalarda mutaxassislariga bo‘lgan talab va takliflar ortib bormoqda, oliy va professional ta‘lim muassasalar mutaxassislarni tayyorlashda bu takliflar va talablar bilan xam nafas ishlashi lozim.

Oxirgi bir necha yil ichida mamlakatdagi oliy ta‘lim muassasalar soni oshib borayotganligini kuzatilib borilmoqda.


Statistik ma‘limotlarga tayansak, 2018 yil O‘zbekiston Respublikasida, davlat oliy ta‘lim muassasalari 72 ta ni tashkil etgan bo‘lsa, nodavlat oliygohlar soni 9 ta tashkil etgan. 2023 yilga kelib davlat oliygohlari 213 ta ni, nodavlat 30 ta, 70% tashkil etib, davlat oliy talim muassasalari 77% ni, nodavlat 70% ni

o‘shisi kuzatsak bo‘ladi. Bu ko‘rsatkichlar yurtimizda yuqori sifatli kadrlarga muxtojligini anglatadi.

3-jadval


O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim muassasalar son ko‘rsatkichi

	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2018-2023 (%)
Davlat OTM	72	98	119	127	154	213	77%
Nodavlat va xorijiy OTM	9	10	16	18	25	30	70%



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasidagi oliy ta‘lim muassasalarni son ko‘rsatkichi (son)

2023 yildagi statistik ma‘lumotlarga ko‘ra oliygohlar soni 243 ta ni tashkil etadi. Respublika barcha viloyatlarida oliygohlarni tashkil etilishi, hudud korxonalar muamolaridan kelib chiqan holda kadrlar tayyorlash yo‘lga qoyilgan. Oliygochlarni son ko‘rsatkichi o‘shish nisbatiga talabalar va bitiruvchilarni soni o‘shisi kuzatilmoqda.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalar bitiruvchilar ko‘rsatkichi (son)

Yuqorida keltirilgan statistik ma’lumotga asoslangan holda, Respublika oliygohlar bitiruvchilarni soni yildan yilga ortib borayotganini kuzatsak bo’ladi.

4-jadval

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarning bandligini ta’minlash ko‘rsatkichi

Ko‘rsatkichlar	O‘quv yillari					
	2017-2018	2018-2019	2019-2020	2020-2021	2021-2022	2022-2023
Bakalavriyat bosqichi	61449	61178	60114	66865	82168	80117
Ishga joylashish ko‘rsatkichi %	91.1	85.6	84.9	79.7	79.1	78.3
Magistratura bosqichi	5012	5146	3432	5937	5781	10064
Ishga joylashish ko‘rsatkichi %	90.3	85.3	82.3	79.1	81.6	82.4

Bitiruvchilar bandligini ta’minlash 2017-2018 o‘quv yili 91.1% ko‘rsatsa, 2022-2023 o‘quv yilidagi ko‘rsatkich 78.3 % tashkil etadi, bu ko‘rsatkich nima anglatadi, bitiruvchilar yil sayin ishga kirish ko‘rsatkichi pasayishni ko‘rsatmoqda, va ish beruvchilar talablariga javob beradigan mutaxassis yil sayin pasayib borib qolmoqda.

Yuqoridagi keltirilgan muamolar tahlil qilinib hamda ilmiy tadqiqodlarga asoslanib muammolarni bartaraf etishda quyidagi mexanizimlarni qo‘llash lozim:

1. Sanoat ishlab chiqarish korxonalarida talab etiladigan bilim va ko‘nikmalar asosida o‘quv reja va fan dasturlarini tuzish;
2. Oliygozlarda o‘quv rejaga kiritilgan fanlarda amaliy ta’limni sanoat ishlab chiqarish korxonalarida o‘tash dual ta’lim tizimi asosida amalga oshirish;
3. Sanoat ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot va stajirovkalarni tashkillashtirish;
4. Oliy va professional ta’lim muassasalari talabalarini o‘qishidan tashqari sanoat ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlikda ish yuritishi lozim;
5. Oliy va professional ta’lim muassasalarining “Karyera markazi”, “Marketing va talabalar amaliyoti” bo‘limi ish faoliyatini raqamli texnologiyalar yordamida raqamli transformatsiyalash lozim;

Yuqorida keltirilgan barcha bosqichlarni har birini ko‘rib chiqamiz:

1. Respublika viloyatlarida joylashgan oliygohlar, o‘z hududi va yaqin hududlarda joylashgan korxonalar(ish beruvchi)dan o‘quv reja va fan dasturlar tuzishda, korxonada ishlab turgan stanok va qurilmalardan (ish faoliyatiga mos ravishda) namuna olingan holda tuzilishi lozim.



3-rasm. Oliy ta'lim muassasalar bitiruvchilarining badligini taminlash mexanizmlari

Bunda oliygohlar o'quv reja va fan dasturlar tuzishda, shu korxonalaridan namuna va andozalarni olishda, oliygoh professor-o'qituvchilar shu korxonalariga stajirovka o'tashi yoki korxonaga muamolarini o'rganib, ilmiy yechim qilishda talabalarni jalb etishi lozim. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni 1-ilovasining o'ninchi bandida keltirilgan "Korxonaga-oliygoh-ilmiy tashkilot" klasteri asosida amalga oshirilish ko'zda tutilgan;

2. Oliyogohlar o'quv rejani shakllantirgan holda fanlarning amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini sanoat ishlab chiqarish va iqtisodiyot tarmoq korxonalarida dual ta'lim tizimi asosida o'tashi, talabalarning korxonaga ish faoliyatini o'rganishi, adaptatsiyadan o'tishi talabalarda amaliy ko'nikmalar va bilimlar oshishiga erishiladi. Dual ta'lim tizimini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29-martdagi 163-son qarori asosida amalga oshirish ko'zda tutilgan;

3. Oliyogohlar o'z hududida va qo'shni viloyat hududlarida joylashgan yirik sanoat ishlab chiqarish va iqtisodiyot korxonalarida amaliyot va stajirovkalarni tashkil etish. Bunda oliygohlar tanlov asosida talabalar uchun pullik amaliyot va stajirovkalarni tashkil etsa, talabalar yirik korxonalarda nazariy va amaliy olgan bilimlarini stajirovka davrida qo'llash va yangi texnologiyalarda ish o'rganishi mumkin;

4. Oliy va professional ta'lim muassasalar talabalari darsdan tashqari korxonalarida 0.5,0.25 shtat birligida yoki stajor sifatida ish faoliyatini olib borssa, talaba o'z sohasiga doir bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bu esa talaba o'qiyotgan fanlarning mazmunini tushunishi va o'ziga kerakli fanlarni tanlov fan yoki qo'shimcha fan sifatida o'qish imkonini yaratadi. Korxonalariga esa bitirib

kelgan talaba tayor kadr sifatida ishga qabul qilinadi va bu kadrni, “kadrlarni qayta tayorlov” kurslarida o‘qitish xarajatlaridan ozod etadi. Bu mexanizmni O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 113-moddasi asosida amalga oshirish mumkin;

5. Oliygozlarda faoliyat yuritadigan “Karyera markazi” va “Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi”ning faoliyati raqamli texnologiyalar asosida raqamli transformatsiya jarayonidan o‘tishi lozim. Transformatsiya jarayonida oliy va professional ta‘lim muassasalarida axborot tizimini joriy etish yo‘li orqali amalga oshiriladi. Bu bandni amalga oshirish O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston-2030” strageyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni asosida amalga oshirish mumkin.

Ish qidirish axborot tizimlarida xususiy korxonalar bo‘sh vakant lavozimlarni elon qilmasligini inobatga olsak, har bir oliy yoki professional ta‘lim muassasalari o‘zlarining ish qidish tizimini yaratish lozim.

Yuqoridagi barcha muamolarni va yechimlarni inobatga olgan holda, ish qidilish tizimini oliy va professional ta‘lim muassasalarida joriy etishda quydagi tizim yaratildi.

5-rasmda keltirilgan oliy va professional ta‘lim muassasalarining talabalari va bitiruvchilarini ish bilan ta‘minlash va amaliyot hamda stajirovkani tashkil etish axborot tizimi modelida, bitiruvchilar ish qidirishda ko‘maklashish, amaliyot va stajirovka o‘tash, ilmiy ishlab chiqarish loyihalar jamlagan.⁴

Bitiruvchilar va talabalar

Oliy va professional ta‘lim muassasalari talabalari va bitiruvchilari tizim orqali ma‘lumotnoma (rezyume) va portfoliyo to‘ldirish imkonini beradi. Bitiruvchi portfoliyosi ishga kirishda asosiy urg‘u beriladi. Tatqiqotlarga ko‘ra bitiruvchi portfoliyosi amaliyoti mamlakatimiz oliygozlarida joriy etilmaganligi, bitiruvchilar ishga kirishini foizini kamaytiradi, ish beruvchi talabgorni ish stajiga ega masligi va qaysi ko‘nikmaga egaligi nomalum bo‘lib qoladi.

Bitiruvchining rezyumesi qisman o‘zaro bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p sonli xususiyatlar (sifatlar) bilan tavsiflanadi, ularni uch guruhga – portfolioliy, kasbiy va shaxsiy guruhlarga ajratish mumkin.


Bilimli talablarni oliygoz bilan aloqasini yanada kuchaytirish maqsadida, talabal loyihalari tizimi joriy etiladi. Tizim orqali talabalar ilmiy va ishlab chiqarish loyihalarini oliygoz rahbariyatiga taqdim etilsa, loyihalar assosida ishlab chiqarishga joriy etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu tizim nafaqat oliygoz, balki sa‘noat ishlab chiqarish va iqtisodiyot tarmoq korxonalar muamolariga ilmiy va amaliy echim topilish mumkin.

⁴ Tizim modeli muallif tamonidan yaratilgan

Ish beruvchi (korxonalar)

Ish beruvchilar o'zlariga kerak bo'lgan kadrlarni qidirish osonlashi va to'g'ri kadr tanlash tizimi shakilanadi. Talabgorlar orasidan portfoliyo tizimi orqali kadr qirish va ishga yo'llash imkonini beradi, bu esa talabgorlar orasida raqobatbardosh kadrlar shakillanadi.


Ish beruvchilar tizimi orqali korxonalarda mavjud bo'sh ish o'rinlarni e'lon qilish orqali, talabgorga o'zlarini ish o'rin bo'yicha talab etiladigan talablari, bilim va ko'nikmalarini kiritish orqali bitiruvchilar tayyorgarlik holatini aniqlash mumkin. Bundan tashqari ta'lim muassasalari kadr tayyorlashda, o'quv reja tuzish, o'qitilayotgan fanlar ma'zmunlarini o'zgartirish orqali sifatli kadr tayyorlashga erishishadi.



5-rasm. Oliy ta'lim muassasalari talabalari va bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash axborot tizimi modeli.


Amaliyot va stajirovka

Amaliyot va stajirovka tizimidan talabalar o'ziga mos korxonani qidirish va amaliyot o'tashga so'rovnoma yuborish tizimi shakillanadi. Talabalarni ishlab chiqarish amaliyot o'tash katta ahamiyatga egaligini barcha bilsa ham, bugungi kunda talabalar amaliyotga borib qatnashishi sustlashib qolmoqda. Talaba ishlab chiqarish amaliyotida, kelajakda tanlayotgan ishini tubdan tanishishi, ishdagi xodimlar bilan aloqalarini mustaxkamlash va rahbariyat oldida o'z ko'nikmalarini ko'rsatish tizimi shakillanadi.



6-rasm. Oliy ta'lim muassasalar bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash axborot tizimi jarayonlari funksional modeli.

Oliy va professional ta'lim muassasalarini bitiruvchilari uchun bandlik modelini amalga oshirish natijasida, ta'lim muassasalarida bitiruvchilarga ish bilan ta'minlash axborot tizimini joriy etishda, asosiy vazifasi etib ta'lim muassasalarni bitiruvchilarni ishga joylash, ishlab chiqarish va mamlakat iqtisodiy tarmoq korxonalariga etuk kadrlar bilan ta'minlash tizimini joriy etishdir.



7-rasm. “Oliy ta'lim muassasalar bitiruvchilarni bandligini qo'llab-quvvatlash” axborot tizimining funksional jarayonlari.

Axborot tizimi yuritish, ta'lim muassasalarini “Marketing va talabalar amaliyoti” bo'lim xodimlari ma'lumotlarni qayta ishlash va hisobot yaratish

maqsadida “Ish bilan ta’minlash” ma’lumotlar bazasini yuritish kerakligini anglatadi.

“Hisobotlarni yaratish” quyi tizimi vazifasi shundaki, bo’lim xodimlari axborot tizimdagi ma’lumotlarga asoslanib, ishga joylashtirish jarayoni bo’yicha turli xil hisobotlarni shakillantiriladi.

“Mehnat yarmarkasi” quyi tizimi vazifasi, mahnat yarmarkasini o’tkazish uchun ma’lumot tayyorlash va tadbir bo’yicha turli hisobotlarni ishlab chiqishdan iborat.

“Bo’sh ish o’rinlari va rezyumelarni tanlash” quyi tizimi vazifasi-bo’lim xodimlari talabnoma beruvchi yoki ish beruvchi uchun ma’lumotlar bazasidan kerakli rezyumeni yoki bo’sh ish o’rinini tanlashi. Ushbu muammoni hal qilish uchun ma’lumotlar so’rovnoma, mehnat yarmarkasi natijalari va ish qidish axborot tizimi orqali topiladi.

“Statistika” quyi tizimi vazifasi ta’lim muassasalarini hisobot shakillantirish va reytingini oshirish maqsadida joriy etiladi. “Ishga joylashish uchun yo’llanmalar berish va qabul qilish” quyi tizimi vazifasi shundan iboratki, ta’lim muassasalar xodimlari tomonidan ma’lumotlar bazasida bitiruvchilar va bo’sh ish o’rinlari to’g’risidaga ma’lumotlarni qidish natijalari bo’yicha talabalarga ishga joylashish uchun yo’llanmalar shakllantiriladi va beriladi.

“Qabul qilinmaganlar va ishga qabul qilinganlar ro’yxatini yuritish” quyi tizimi vazifasi shundan iboratki, bo’lim xodimlari ishga joylashgan bitiruvchilar va bo’sh ish o’rinlari to’g’risidagi statistik ma’lumotlar asosida ishga qabul qilinmaganlar, mavjud bo’sh ish o’rinlari va ishga joylashtirilgan bitiruvchilar to’g’risidagi ro’yxatlarni tuzadilar.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda:

1. Oliy va professional ta’lim muassasalar bitiruvchilar ish bilan ta’minlash tizimi raqamli texnologiyalar asosida “Oliy va professional ta’lim muassasalar bitiruvchilarini bandligini qo’llab-quvatlash” axborot tizimi joriy etilishi, bitiruvchilarga ish qidirishda yengilik yaratishi;

2. Bitiruvchilar portfoliyo to’ldirish tizimi orqali, bitiruvchilar o’zlarni ma’lumotlarini tizimga, o’qish davridagi erishgan barcha yutuqlarini tizimga kiritish orqali ish beruvchilar talabgorlar orasidan munosiblarni tanlab olish imkonini yaratadi;

3. Ilmiy va amaliy loyihalar tizimi orqali, talablar loyihalari orqali qo’shimcha mablag yoki bilim va ko’mikmalar olishi imkoni yaratiladi;

4. Amaliyot va ishlab chiqarish stajirovka tizimi orqali, talabalar mutaxassislik bo’yicha sanoat ishlab chiqarish va iqtisodiyot tarmoq korxonalarini o’zlari tanlash, amaliyot o’tash imkoni yaratiladi.

Tadqiqotlarga ko‘ra bitiruvchilarni ish bilan taminlash 23% dan 40% ga oshadi, va oxirgi ko‘rsatgich 17 % ni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlarni ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 20 iyun 2024 kuni “Muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish” masalalari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilish. <https://president.uz/uz/lists/view/7333>

2. Abdullayev O.M., Fattaxov.A.A., K.Axmedov. Raqamli iqtisodiyot. T.:LESSON, 2020.- 126 b

3. Annakulov Kamol Xasanovich “Mehnat bozorida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini oshirish” Annakulov Kamol Xasanovich , UO‘K: 331.5:378-057.85(575.1).2024 yil 36b

4. Avdeeva E.A. Modern employee values // Scientific Bulletin of Voronezh State University of Architecture and Civil Engineering. Economics and entrepreneurship.- 2015. No. 1 (12). P.28-31.

5. Volkov V.R. Secondary employment of students: problems and development trends / V.R.Volkov // Bulletin of Economics, Law and Sociology. – 2018. – No.1. – P. 181-185.

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz